



\_\_\_\_\_ *hokimligi*  
*maktabgacha va maktab ta'limi*  
*boshqarmasi*

\_\_\_\_\_ *maktabgacha va*  
*maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi*  
*\_\_\_-umumiy o'rta ta'lim maktabi*  
*tarix fani o'qituvchisi*

\_\_\_\_\_ *ning*  
*20\_\_-20\_\_-o'quv yilida 10-sinf II yarim*  
*yillik uchun jahon tarixi fanidan*

# **DARS**

# **ISHLANMALARI**

20\_\_-20\_\_-o‘quv yili 10-sinf jahon tarixi fanidan II yarim yillik  
taqvim mavzu rejasi

No	O‘tiladigan mavzular rejasi	Nazariy soat	Dars o‘tkazish muddati	Dars o‘tkazilgan sana
1.	SSSR va Sharqiy Yevropa mamlakatlari rivojlanishining asosiy yo‘nalishlari. <b>(Loyiha ishi mavzusi va baholash mezonlarini e‘lon qilish)</b>	1		
2.	AQSH: yangi liderning paydo bo‘lishi	1		
3.	Buyuk Britaniya va Fransiya: yangi Yevropani qurish	1		
4.	Germaniya va Italiya: mag‘lubiyatdan keyingi taraqqiyot	1		
5.	G‘arbiy Yevropada iqtisodiy va siyosiy integratsiya jarayonlari	1		
6.	Janubiy va Shimoliy Yevropa mamlakatlari: diktatura va demokratiya	1		
7.	Sovet Ittifoqida islohotlar va inqiroz: imperiyaning tugatilishi	1		
8.	Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlari totalitarizm va demokratiya oralig‘ida	1		
9.	Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlari rivojlanishining asosiy yo‘nalishlari.	1		
10.	<b>BSB-2. (50 ball) Loyiha ishi taqdimoti</b>	1		
11.	Yaponiya Xitoy va Janubiy Koreya: Osiyo sivilizatsiyasi qadriyatlari va G‘arb ishlab chiqarish usuli uyg‘unligi	1		
12.	Hindiston va Pokistonda mustaqillikning murakkab yo‘li	1		
13.	Turkiya, Eron va Afg‘oniston: diniy qadriyatlar va zamonaviy sivilizatsiya muammolari	1		
14.	Suriya, Iroq va Janubi-g‘arbiy Osiyo mamlakatlari	1		
15.	Lotin Amerikasida milliy islohotchilik va taraqqiyotning boshqa yo‘llari	1		
16.	Afrikada mustaqillik, qashshoqlik va taraqqiyot muammolari.	1		
17.	<b>CHSB – 2. (40 ball)</b>	1		
18.	XX asrning ikkinchi yarmida ilm-fan va madaniyatning rivojlanishi	1		

<b>Sana:</b>				
<b>Sinf:</b>				

**Mavzu: SSSR va Sharqiy Yevropa mamlakatlari rivojlanishining asosiy yo‘nalishlari. (Loyiha ishi mavzusi va baholash mezonlarini e‘lon qilish)**

**Darsning maqsadi:**

**Ta‘limiy:** yangi davrning so‘nggi bosqichi va eng yangi davrda sodir bo‘lgan muhim voqealar bayon qilinishi bilan birga jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichi, shuningdek, bugungi kunda dunyo sahnida ro‘y berayotgan ayrim voqealarning kelib chiqish sabablarini tahlil qilishga o‘rgatish.

**Tarbiyaviy:** o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga undovchi, ularning dunyoqarashlarini kengaytirishga qaratilgan tarixiy ma‘lumotlar haqida tushuncha berish. Jahon xalqlari madaniyatining har biri o‘ziga xos va noyob ekanligini, insonparvarlik va vatanparvarlik tamoyillari, fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat g‘oyalariga asoslangan umuminsoniy qadriyatlarni anglash ko‘nikmalarini shakllantirish.

**Rivojlantiruvchi:** dunyo va jamiyat taraqqiyotining muhim qonuniyatlari va o‘ziga xos yo‘llarini bilib olish va kelajak haqida tasavvurlarga ega bo‘lish, ilg‘or mamlakatlarning tarixiy tajribasini O‘zbekistonda ijodiy qo‘llashga imkon beruvchi bilimlarni rivojlantirish.

**O‘quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar tizimi.**

**Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:**

axborotlarni mustaqil izlab topish, tahlil etish, qiyoslash va xulosa chiqarish;  
axborot manbalaridan samarali va oqilona foydalanish, hujjatlar ustida ishlash;  
axborot iste‘moli madaniyatini egallash, axborot xavfsizligini ta‘minlash va axborot xurujlariga qarshi kurashish.

**Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:**

jamiyatdagi voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va faol ishtirok etish;  
voqea-hodisalarga nisbatan ogohlik va hushyorlik bilan munosabatda bo‘lish, tashabbus ko‘rsatish;  
o‘zining fuqarolik burch va huquqlarini bilishi, unga rioya qilish.

**Darsning metodi:** og‘zaki (suhbat, savol-javob)

**Darsning vositalari:** dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

**Shakl:** jamoa, guruhda ishlash, hamma o‘zi uchun.

**Nazorat:** o‘quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

**Baholash:** o‘quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e‘lon qilinadi.

**Darsning borishi:**

№	Bo‘limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O‘tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
<b>Jami</b>		<b>45 daqiqa</b>

**I. Tashkiliy qism:** a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

**II. Uyga vazifani so‘rash:** a) Savol – javob o‘tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

**III. Yangi mavzu bayoni:**



Sharqiy Yevropaning ko‘pchilik davlatlari – **Polsha, Chexoslovakiya, Vengriya** jahon siyosiy xaritasida Birinchi jahon urushidan so‘ng paydo bo‘lgan edi. Fashizm tormor qilingandan so‘ng Sharqiy Yevropa mamlakatlarida hokimiyatga antifashist yo‘nalishdagi partiyalar (kommunistlar, sotsial-demokratlar, liberallar va boshqalar) vakillaridan iborat koalitsion hukumatlar keldi. Sovuq urush boshlanishi bilan Sharqiy Yevropa mamlakatlarida ham siyosiy kuchlarning qarama-qarshi tomonlarga, G‘arb va sovetlar tarafdorlariga ajralishi yuz berdi. Ko‘pchiligida sovet qo‘shinlari joylashgan bu mamlakatlarda 1947–1948yillari kommunistik qarashlarni

yoqlamaganlar hukumatlar tarkibidan chiqarildi. SSSRning iqtisodiy va harbiy-siyosiy qudrati yuksalishi bilan sovet rahbarlarida dunyoning bir qismiga yetakchilik qilish da'vosi ham ortib bordi. SSSR sotsializm qurish yo'liga kirgan mamlakatlarga moliyaviy va harbiy yordam ko'rsata boshladi. Yevropaning ikki guruhga – AQSH bilan yaqinlashuv yo'lini tanlagan hamda SSSR bilan hamkorlikni tanlagan davlatlarga bo'linishi 1980-yillar oxirigacha davom etdi va bu qarama-qarshilik jahon tarixida "sovuq urush" nomini oldi. Yevropa qit'asida, keyin esa butun dunyo miqyosida bir-biriga qarama-qarshi turgan harbiy-siyosiy va iqtisodiy ittifoqlar tizimi shakllandi. Dunyoning eng katta davlatlari – AQSH va SSSR bu ittifoqlarning markazlariga aylandi **1949-yil yanvarda** SSSR va Sharqiy Yevropaning ko'pchilik davlatlari iqtisodiy ittifoq – **O'zaro Iqtisodiy Yordam Kengashi (O'IYK)** tuzilganligini e'lon qildilar. O'z navbatida, G'arb davlatlari **1949-yil aprelda Shimoliy Atlantika Shartnomasi Tashkiloti (NATO)** deb ataluvchi harbiy-siyosiy tashkilotni tuzdilar. Shimoliy Atlantika Shartnomasi Tashkilotiga javob tariqasida **1955-yili** SSSR bilan unga do'st bo'lgan Sharqiy Yevropa davlatlarining harbiy-siyosiy ittifoqi – **Varshava Shartnomasi Tashkiloti** tuzildi. Yevropada ikkita bir-biriga qarama-qarshi turuvchi harbiy-siyosiy ittifoqning vujudga kelishi faqat SSSR bilan AQSH o'rtasida



dunyoga hukmronlik qilish uchun kurashning natijasi emasdi. Ulardan har biri o'zining milliydavlat manfaatlarini bilan bog'liq qarashlaridan kelib chiqadigan dunyo modelini, xalqlarning o'ziga xos yashash tarzini himoya qilardi. 1956-yil fevralda bo'lib o'tgan **Sovet Ittifoqi kommunistik partiyasi (KPSS)**ning XX syezdida **Nikita Xrushchiov** nutq so'zlab, Stalin davrida shakllangan shaxsga sig'inishni qoraladi. XX syezd sovet totalitar davlatining xarakterini anglash jarayonini, xalqaro kommunistik harakatning inqirozini boshlab berdi va sotsialistik tizim oxirigacha bu inqirozdan chiqolmadi. Qayta qurish yillari kirib kelgan oshkoralik sovet jamiyatining poklanishi yo'lida katta qadam bo'ldi, u stalinizmning, sovet totalitar tuzumining jinoyatlarini ochib tashladi. Endi ko'pchilik, ayniqsa, ilg'or ziyolilar bu tuzumni isloh qilish emas, undan voz kechish lozimligini anglab yetdilar. SSSRdagi kommunistik mafkura inqirozi butun dunyoda kommunistik harakat, umuman, so'l mafkuraning inqiroziga olib keldi. *1947-yili AQSH tomonidan "Marshall rejasi" taklif qilindi. Sharqiy Yevropa mamlakatlarida 1947–1948-yillari kommunistik qarashlarni yoqlamaganlar hukumatlar tarkibidan chiqarildi. 1949-yili O'zaro Iqtisodiy Yordam Kengashi (O'IYK) tuzildi.*

#### **IV. Yangi mavzuni mustahkamlash:**

- 1. Sharqiy Yevropa davlatlari – Polsha, Chexoslovakiya, Vengriya jahon siyosiy xaritasida qaysi voqeadan keyin paydo bo'ldi?**
- 2. Nima sababdan sovuq urush jarayonida harbiy-texnik omillar eng katta rol o'ynay boshladi?**
- 3. Integratsiyalashuv jarayonida qanday iqtisodiy va harbiy bloklar tuzildi?**
- 4. Totalitar rejim mafkurasining muhim tarkibiy qismlarini sanang.**

**V. O'quvchilarni rag'batlantirish.** darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o'quvchilar rag'bat kartochkalari bilan rag'batlantiriladi.

**VI. Uyga vazifani e'lon qilish:** Xaritadan foydalanib Shimoliy Atlantika Shartnomasi Tashkiloti (NATO) va Varshava Shartnomasi Tashkiloti tarkibidagi hududlarni ko'zdan kechiring. Daftaringizga har bir davlatning tashkilotga nima munosabat bilan qabul qilinganini yozing va sharhlang.

**O'IBDO':** \_\_\_\_\_

(imzo)

(sana)

<b>Sana:</b>				
<b>Sinf:</b>				

**Mavzu: AQSH: yangi liderning paydo bo'lishi**

**Darsning maqsadi:**

**Ta'limiy:** yangi davrning so'nggi bosqichi va eng yangi davrda sodir bo'lgan muhim voqealar bayon qilinishi bilan birga jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichi, shuningdek, bugungi kunda dunyo sahnida ro'y berayotgan ayrim voqealarning kelib chiqish sabablarini tahlil qilishga o'rgatish.

**Tarbiyaviy:** o'quvchilarni mustaqil fikrlashga undovchi, ularning dunyoqarashlarini kengaytirishga qaratilgan tarixiy ma'lumotlar haqida tushuncha berish. Jahon xalqlari madaniyatining har biri o'ziga xos va noyob ekanligini, insonparvarlik va vatanparvarlik tamoyillari, fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat g'oyalari asoslangan umuminsoniy qadriyatlarni anglash ko'nikmalarini shakllantirish.

**Rivojlantiruvchi:** dunyo va jamiyat taraqqiyotining muhim qonuniyatlari va o'ziga xos yo'llarini bilib olish va kelajak haqida tasavvurlarga ega bo'lish, ilg'or mamlakatlarning tarixiy tajribasini O'zbekistonda ijodiy qo'llashga imkon beruvchi bilimlarni rivojlantirish.

**O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar tizimi.**

**Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:**

axborotlarni mustaqil izlab topish, tahlil etish, qiyoslash va xulosa chiqarish;  
axborot manbalaridan samarali va oqilona foydalanish, hujjatlar ustida ishlash;  
axborot iste'moli madaniyatini egallash, axborot xavfsizligini ta'minlash va axborot xurujlariga qarshi kurashish.

**O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi:**

shaxs sifatida doimiy ravishda o'z-o'zini rivojlantirish, jismoniy, ma'naviy, ruhiy va intellektual kamolotga intilish;

o'z xatti-harakatini adekvat baholash, o'z-o'zini nazorat qilish, halollik, to'g'rilik kabi sifatlarga ega bo'lish;

o'z ustida mustaqil ishlash va ijodiy-izlanishga doir faoliyatni tashkil etish.

**Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi:**

inson mehnatini yengillashtiradigan, mehnat unumdorligini oshiradigan va qulay shart-sharoitga olib keladigan fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalana olish.

**Darsning metodi:** og'zaki (suhbat, savol-javob)

**Darsning vositalari:** dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

**Shakl:** jamoa, guruhda ishlash, hamma o'zi uchun.

**Nazorat:** o'quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

**Baholash:** o'quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e'lon qilinadi.

**Darsning borishi:**

<b>№</b>	<b>Bo'limlar</b>	<b>Vaqt</b>
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
<b>Jami</b>		<b>45 daqiqa</b>

**I. Tashkiliy qism:** a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

**II. Uyga vazifani so'rash:** a) Savol – javob o'tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

**III. Yangi mavzu bayoni:**

Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda AQSH taraqqiyoti uchun juda qulay sharoit vujudga keldi. Urush AQSH iqtisodining tez sur'atlar bilan rivojlanishini ta'minladi. Urush yillari AQSHning ishlab chiqarish quvvatlari ikki barobar, eksport hajmi beshbarobar, yalpi milliy mahsuloti hajmi ikki barobar o'sdi. Shu tariqa AQSH iqtisodiy va harbiy jihatdan dunyoning eng qurdatli davlatiga, yangi lideriga



AQSH prezidenti Duayt Eyzenhauer

aylandi. 1952-yilgi saylovlarda respublikachilar partiyasi g'alaba qozondi. Ikkinchi jahon urushi qahramoni, urush yillari AQSHning Yevropadagi qo'shinlari qo'mondoni bo'lgan general **Duayt Eyzenhauer** AQSH prezidenti etib saylandi. Siyosatda realist bo'lgan D. Eyzenhauer iqtisodiyot va ijtimoiy sohada davlatning rolini oshirish lozimligini juda tez anglab yetdi. Shu sababli uning ma'muriyati ichki siyosatda, ayniqsa, ijtimoiy sohada o'zidan oldingi demokratlarning siyosatini biroz o'zgarishlar bilan davom ettirdi. **1960-yilgi** prezidentlik saylovlarida demokratik partiya nomzodi **Jon Kennedining** g'alabasi urushdan keyingi Amerika tarixida muhim voqea bo'ldi. J. Kennedy o'zining "Yangi marralar" deb nom olgan islohotchilik dasturini ilgari surdi, iqtisodni barqarorlashtirish va ijtimoiy yordam dasturini kengaytirish bo'yicha juda ko'plab tadbirlar ishlab chiqdi va amalga oshirdi. J. Kennedy **1963-yil 22-noyabr**da ikkinchi marta

prezident bo'lish uchun saylovoldi tashviqoti doirasidagi tadbirda ishtirok etayotgan chog'ida yollanma qotil tomonidan o'ldirildi. Bu fojia Amerikaning o'zida ham, butun dunyoda ham ko'pchilikni chuqur iztirobga soldi. **1964-yilgi** saylovlarda **Lindon Jonson** g'alaba qozondi va AQSH prezidenti lavozimini egalladi. XXasrning 60-yillari AQSHda ommaviy norozilik harakatlari avj oldi. Ijtimoiy va siyosiy hayotning turli sohalarida saqlanib qolayotgan afroamerikaliklarning kamsitilishi qarshilik harakatining asosiy sababi edi. 1960-yillar o'rtalarida afroamerikaliklar harakatida o'z huquqlari uchun kurashda kuch ishlatish yo'lini tanlagan guruh paydo bo'ldi. **1968-yil 4-aprel** kuni Memfis shahrida fuqarolar tengligi uchun harakatning eng mashhur rahbari, afroamerikalik tinchlik bo'yicha Nobel mukofoti laureati, ruhoni **Martin Lyuter King** o'ldirildi. Ruhoniyni ko'mish marosimi afroamerikalik aholiga nisbatan zo'rvonliklarga qarshi norozilik namoyishiga aylanib ketdi. Shunday murakkab sharoitda 1968-yili bo'lib o'tgan saylovlarda respublikachilar partiyasi vakili – **Richard Nikson** AQSH prezidenti etib saylandi. R. Niksonning hokimiyatga kelishi bilan Amerika tarixida respublikachilarning navbatdagi davri boshlandi. R. Niksonga ancha og'ir meros qoldi. Iqtisodiy inqirozni bartaraf etish maqsadida 1971-yili R. Nikson "yangi iqtisodiy siyosat"ni e'lon qildi. **1976-yili** Amerika Qo'shma Shtatlari o'z mustaqilligining 200 yilligini katta tantanalar bilan nishonladi. Shu yili o'tkazilgan prezidentlik saylovlarida demokratik partiya vakili – **Jimmi Karter** g'alaba qozondi. J. Karter to'rt yillik prezidentlik davrida o'zining saylovoldi va dalaridan ko'pchiligini bajarishga erisha olmadi. Uning prezidentlik davrini, ayniqsa, olib borgan tashqi siyosatini muvaffaqiyatli deb bo'lmaydi. Qo'shma Shtatlar siyosati va obro'yiga berilgan juda katta zarbalardan biri **1979-yilgi Eron inqilobi** bo'ldi. Umuman, 1980-yillarga AQSH ancha sust ichki va tashqi pozitsiya bilan kirib keldi. Mamlakatning moliyaviy ahvoli yomonlashdi. Iqtisodda uzoq muddatli salbiy tendensiyalar paydo bo'ldi. 1980-yilgi prezidentlik saylovlarida respublikachilar partiyasidan nomzod – **Ronald Reygan** g'alaba qozondi. Demokratlar senatda va vakillar palatasida ham ko'plab o'rinlaridan ajraldi. R. Reyganing ijtimoiy-iqtisodiy dasturi "**Reyganomika**" nomi bilan mashhur bo'ldi. R. Reygan iqtisodiy tushkunlikni yengib o'tishga, ishsizlikni qisqartirishga, daromad solig'ini pasaytirishga, iqtisodiy o'sish sur'atlarini jadallashtirishga, ish tashlash harakatini jilovlashga erishdi. Bular va boshqa bir qator omillar uning 1984-yili ikkinchi muddatga prezident etib saylanishini ta'minladi. R. Reygan siyosatidagi ijobiy o'zgarishlar 1988-yilgi navbatdagi prezidentlik saylovlarida respublikachilar partiyasi vakili – **Jorj Bushga** prezidentlik saylovlarida g'alaba qozonish imkonini berdi. Ikkinchi jahon urushidan so'ng qudratli davlatga aylangan AQSH SSSR bilan sovuq urushga kirishdi, Koreya, Vyetnam va Osiyoning boshqa hududlarida bir qator urushlar olib bordi. 1973-yili Vyetnamdagi urush to'xtatildi. Vyetnam uzilkesil yagona davlatga birlashdi. Bu Janubi-sharqiy Osiyoda Amerika tajovuzining to'liq mag'lubiyatga uchraganini anglatar edi.



1980-yillar oxiri – 1990-yillar boshiga kelib xalqaro maydonda yuz bergan sovuq urushning yakunlanishi, yadro urushi xavfining kamayishi, SSSR va sotsialistik hamdo‘stlikning tarqalib ketishi, Germaniyaning birlashishi kabi voqealar AQSH siyosatiga jiddiy ta‘sir ko‘rsatdi. AQSH dunyoning yagona va umumiy tan olingan yetakchisiga aylandi. Bu AQSHni bir qutbli dunyo tartibini yaratish mumkinligi to‘g‘risidagi o‘ta jozibador, ammo ziddiyatli fikrga olib keldi.

  
**YODDA TUTING**

*1952-yilgi saylovlarda 1932-yildan beri muxolifatda bo‘lib kelayotgan respublikachilar partiyasi g‘alaba qozondi.*

*1960-yilgi prezidentlik saylovlarida demokratik partiya nomzodi – Jon Kennedining g‘alabasi urushdan keyingi Amerika tarixida muhim voqea bo‘ldi.*

*J. Kennedi 1963-yil 22-noyabrda ikkinchi marta prezident bo‘lish uchun Texas shtatining Dallas shahrida saylovoldi tashviqoti doirasidagi tadbirda ishtirok etayotgan chog‘ida yollanma qotil tomonidan o‘ldirildi.*

  
**Jon Kennedi**

#### **IV. Yangi mavzuni mustahkamlash:**

1. Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda AQSH taraqqiyotida qanday jarayonlar kuzatildi?
2. AQSHning ichki siyosatida har bir prezidentning qaysi jihatlarini e‘tirof etish lozim?
3. AQSHning tashqi siyosatida murakkablik kuzatilgan davr haqida nimalarni bilasiz?
4. 1980-yillar oxiri – 1990-yillar boshiga kelib xalqaro maydonda sodir bo‘lgan eng asosiy voqealar nimalardan iborat edi?

**V. O‘quvchilarni rag‘batlantirish.** darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o‘quvchilar rag‘bat kartochkalari bilan rag‘batlantiriladi.

**VI. Uyg‘a vazifani e‘lon qilish:** yangi mavzuni to‘liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlab kelish.

**O‘IBDO‘:** \_\_\_\_\_ (imzo) \_\_\_\_\_ (sana)

*vab-saytimiz: [Zokirjon.com](http://Zokirjon.com)*

*Zokirjon.com. vab-sayiti orqali o'zingiz uchun kerakli hujjatlarni yuklab olishingiz mumkin.*

## **Zokirjon Admin bilan**

**90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog'lanishingiz nza456 yoki nza445 izlab telegramdan yozishingiz so'raladi.**

**Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida javob beriladi**

**52 listdan iborat 10-sinf jahon tarixi fanidan II yarim yillik konspektini to'loq holda olish uchun telegramdan yozing.**




Telegram kanalimiz:

**@Maktablar\_uchun\_hujjatlar**

To'lov uchun: **UZCARD \*880\*9860230104973329\*summa#**

**Plastik egasi Nabiyev Zokirjon**



### **DIQQAT!!!**

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.  
To'liq holda olganingizdan so'ng:  
Faqat o'zingiz uchun foydalaning.  
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.  
Internet orqali vab-saytlarga joylamang.  
Kanal va gruppalariga tarqatmang.

**OMONATGA  
HIYONAT QILMANG.**

***Bizni hizmatdan foydalanib qulay imkoniyatga ega bo'ling!***

***Bizda maktablar uchun quydagi hujjatlar mavjud.***

- 1. 1-11-Sinflar uchun kelajak soati ish reja va konspektlari**
- 2. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan to'g'arak hujjatlari**
- 3. Sinf rahbar hujjatlari**
- 4. Metodbirlashma hujjatlari**
- 5. Ustama hujjatlari**
- 6. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan konspektlar va tezislar**
- 7. 1-11-Sinflar uchun Ish rejalar (Taqvim mavzu rejalar)**
- 8. Maktab ish hujjatlari**
- 9. Direktor ish hujjatlari**
- 10. MMIBDO' ish hujjatlari**
- 11.O'IBDO' ish hujjatlari**
- 12.Psixolog hujjatlari**
- 13.Xotin-qizlar qo'mitasi ish hujjatlari**
- 14.Kutubxona mudirasi ish hujjatlari**
- 15.Besh tashabbus hujjatlari**
- 16. Ommalashtirish uchun dars ishlanmalar va ochiq dars ishlanmalar, taqdimotlar, slaydlar**